



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 78 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллович, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	



TASHISH VA SAQLASH XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH HOLATI

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich

TATU Samarqand filiali PhD, dotsent v.b.

Elektron pochta: orajabov6466@gmail.com

ORCID: 0009-0005-7945-3479

Annotatsiya: Mazkur maqolada tashish va saqlash xizmatlarini raqamlashtirish, logistika xizmatlarini ko'rsatishda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy turlari, ularning logistika xizmatlariga ta'sir ko'rsatish sohalari, shuningdek, logistika xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi biznes subyektlari, jumladan, ishlab chiqarish korxonalarining logistika bo'limlari, logistika provayderlik xizmatlarini ko'rsatuvchi, transport va omborxona xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi biznes subyektlarining axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'minot zanjiri, logistika xizmati, elektron hisob-fakturalar, internet portali, internet-resurs, avtomatlashtirilgan ichki biznes jarayonlari, radiochastotani identifikatsiya qilish texnologiyasi (RFID texnologiyasi), 3D printerlar.

Abstract: This article explores the digitalization of transportation and storage services, focusing on the main types of information and communication technologies (ICT) used in the provision of logistics services. It examines the areas in which ICT impacts logistics operations and presents the results of a survey conducted to assess the level of ICT adoption among business entities involved in logistics services — including manufacturing companies with internal logistics departments, logistics service providers, and businesses engaged in transportation and warehousing.

Key words: supply chain, logistics services, electronic invoices, internet portal, internet resource, automated internal business processes, radio frequency identification technology (RFID technology), 3D printers.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы цифровизации услуг по перевозке и хранению, основные виды информационно-коммуникационных технологий, применяемых при оказании логистических услуг, а также направления влияния ИКТ на сферу логистики. Освещены результаты проведённого опроса по изучению уровня использования информационных технологий субъектами бизнеса, занимающимися предоставлением логистических услуг, включая логистические подразделения производственных предприятий, логистических провайдеров, а также субъекты, работающие в сфере транспортировки и складского хозяйства.

Ключевые слова: цепочка поставок, логистические услуги, электронные счета-фактуры, интернет-портал, интернет-ресурс, автоматизированные внутренние бизнес-процессы, технология радиочастотной идентификации (технология RFID), 3D-принтеры.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotidagi sifat o'zgarishlari sharoitida "Sanoat 4.0" formatining jadal rivojlanib borishi natijasida samarali, tezkor va tejamkor tovarlar harakatini ta'minlovchi raqamli texnologiyalarga asoslangan logistika xizmatlari bozoriga bo'lgan talab keskin ortib bormoqda. Global logistika xizmatlari bozori hajmi 2023-yilda 8,96 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, 2033-yilda uning qiymati 21,91 trillion dollardan oshishi prognoz qilinmoqda [7]. Bugungi kunda jahon logistika xizmatlari bozorida buyurtmalar va zaxiralarni boshqarish kabi jarayonlarni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



O'zbekistonda logistika tizimini jahon standartlari asosida tubdan takomillashtirish, raqamli logistika tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy logistika tizimini global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyalash va ushbu tizim salohiyatini oshirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikada "yuklarni tashish hajmini 16 million tonnaga yetkazish, shimoliy yo'nalishda temiryo'l orqali yuk tashish muddatlarini 40 foizga qisqartirish, yo'lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini 3 barobar oshirish, aviaqatnovlar sonini 4 barobarga oshirish, temiryo'l va havo yo'llari transportida yo'lovchi hamda yuk tashish xizmatlari tariflarini shakllantirishda bozor tamoyillariga o'tish hamda sohaga xususiy va xorijiy operatorlarni jalb qilish" [1] vazifalari belgilangan. Shu munosabat bilan raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini oshirish, sohaga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish yo'nalishidagi tadqiqotlarni ustuvor darajada amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XXI asrdan boshlab zamonaviy tadqiqotlarning dolzarb mavzularidan biri milliy iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarini raqamli transformatsiya qilishdir. Raqamlashtirish iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarini, jumladan, logistika xizmatlari va uning infratuzilmasini ham qamrab olmoqda. Logistika sohasini raqamlashtirish natijasida yangi — "Logistika 4.0" yoki "raqamli logistika" konsepsiyasi rivojlanmoqda. Logistika xizmatlari sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish xarajatlarni kamaytirish, logistika jarayonlarining tezligi, moslashuvchanligi va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu orqali alohida korxona va umuman mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

"Raqamli logistika" tushunchasini rossiyalik mutaxassislar V.L. Vasilenok, V.V. Negreva, E.I. Aleksashkina, A.I. Kruglova va S.A. Plastunovlar axborotlarni yig'ish, saqlash va uzatish usuli, shuningdek, yuklarni yetkazib berish jarayonini optimallashtirishga imkon beruvchi raqamli texnologiyalar sifatida talqin qilishgan [3]. G.V. Bubnova va B.A. Lyovinar raqamli logistikani transport-logistika tizimining kompleks samaradorligini oshirish hamda rivojlanishning innovatsion mexanizmi sifatida tadqiq qilishgan [2]. T.V. Shegoleva esa yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda ta'minot zanjiri ishonchligini raqamli texnologiyalar yordamida oshirish masalasini o'rgangan [10].

Umuman olganda, adabiyotlarni o'rganish logistika xizmatlarini ko'rsatishda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy turlarini, shuningdek, ularning logistika xizmatlariga ta'sir ko'rsatish sohalarini aniqlash imkonini beradi. Empirik tadqiqotlarga asoslanib, mualliflar P. Evangelista, R. Mogre va E. Sweeney axborot texnologiyalarining logistika xizmatlari sifatiga ta'sirini [4], T. Kawasaki, S. Hanaoka va H.T. Le tashkiliy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini [6], K.L. Choy, A. Gunasekaran, H.Y. Lam, K.H. Chow, Y.C. Tsim va T.W. Ng esa logistika xizmatlari bozorida kompaniyalarga raqobatbardosh ustunlikni [8] ta'minlashdagi rolini asoslab berishgan. Ularning fikricha, logistika xizmatlari sifati yuqori bo'lgan kompaniyalar mijozlar tomonidan ko'proq tanlanadi. Natijada mijozlar doirasi kengayib, samarali xizmatlar sotilishi orqali raqobatbardoshlikka erishiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozishda logistika xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi biznes subyektlari, jumladan, ishlab chiqarish korxonalarining logistika bo'limlari, logistika provayderlik xizmatlarini ko'rsatuvchi, transport va omborxona xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi biznes subyektlarining axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasini o'rganishda so'rov usulidan foydalanilgan. Shuningdek, maqolani tayyorlash jarayonida abstrakt-mantiqiy fikrlash, tahlil, sintez va mavhum-mantiqiy tahlil usullaridan ham foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy logistika xizmatlari ko'plab omillar ta'sirida o'zgarib bormoqda. Iste'molchilarning jarayonlar tezligi, sifati va shaffoqligiga bo'lgan talablari ortib bormoqda. Yangi sharoitda mamlakat va korxonalarning iqtisodiy raqobatbardoshligi intellektual logistika xizmatlarining mavjudligi bilan belgilanmoqda. Chunki ekspertlarning fikriga ko'ra, har bir yakuniy mahsulotning qo'shilgan qiymatida logistika xizmatlari ulushi 20 foizdan 60 foizgacha oshib bormoqda [5].

Demak, logistika xizmatlari yangi, innovatsion va raqamli texnologiyalar ta'sirida jadal rivojlanmoqda. Logistika xizmatlari sohasida qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalar xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirish, tovarlarni taqsimlashning umumiy xarajatlarini kamaytirish va logistika zanjirida aylanadigan iqtisodiy oqimlarning traektoriyasini optimallashtirish orqali logistika xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishni oqimlarni boshqarish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy qilmasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Raqamli texnologiyalar logistika xizmatlari samaradorligini sifat jihatidan oshirishni ta'minlaydigan har qanday yangilik sifatida qaraladi. Logistika xizmatlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish



kompaniyalarning raqobatbardoshlik darajasini oshiradi, mijozlar o'rtasida sodiqlikni kuchaytiradi va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi [9].

Logistika savdo va bozor munosabatlarining ajralmas qismi bo'lgan murakkab jarayondir. Shu sababli, logistika o'zi ishtirok etadigan iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun doimiy ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Axborot texnologiyalari va internet bunday zarur o'zgarishlar manbalaridan biriga aylanishi mumkin. Logistikada blokcheyn texnologiyasidan foydalanish raqamli iqtisodiyot vazifalarini amalga oshirish uchun samarali turtki bo'lishi mumkin. Masalan, blokcheyn texnologiyasidan foydalanish natijasida har bir mahsulot "raqamli pasport"ga ega bo'ladi, bu esa xatarlar va qog'ozbozlikni kamaytiradi, mahsulotni to'liq kuzatish imkonini beradigan barcha ma'lumotlar mobil qurilmalarda mavjud bo'ladi hamda mijozlar ishonchi va biznes samaradorligini oshiradi. Blokcheyn platformasi yuk tashuvchilarga real vaqt rejimida buyurtmalar holatini kuzatish imkonini beradi, hisob-fakturalarni yaratishga yordam beradi va sun'iy intellekt dispetcherni to'liq almashtiradi hamda haydovchilar o'rtasida buyurtmalarni avtomatik taqsimlaydi. Bunday platforma tufayli buyurtmani bajarish muddati 2–3 kundan 1 kungacha qisqaradi.

Mamlakatda sanoat ishlab chiqarishga kiritilayotgan yirik investitsiyalar natijasida qayta ishlash sanoati, oziq-ovqat sanoati, kimyo sanoati va boshqa tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi keskin oshib bormoqda. Natijada ishlab chiqarish korxonalari uchun xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Tayyor tovarlar uchun yangi bozorlarning yaratilishi tovar harakatini tashkil etish masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, moddiy oqimlar harakati sezilarli darajada ortmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatda tashish va saqlash xizmatlari, ya'ni logistika xizmatlari hajmining oshishiga olib kelmoqda. Logistika xizmatlari ko'rsatuvchi biznes subyektlar soni ham ortib bormoqda. Bundan tashqari, mamlakat hududida yangi transport yo'laklarining ochilishi hududlarda tranzit yuklarni qayta ishlash bo'yicha logistika xizmatlari hajmining oshishiga olib kelmoqda. Logistika xizmatlari ichida yuklarni manzilga yetkazib berish, yuklarni jo'natish va qabul qilish, konteynerlarda yuklarni qabul qilish muhim o'rin tutadi. Logistika xizmatlarini ko'rsatishda rezidentlar bilan birga norezidentlar ham qatnashmoqda. Hududlarda logistika markazlari tashkil etilmoqda. Jumladan, Samarqand viloyatida 2 ta logistika markazi faoliyat yuritmoqda (1-jadval).

1-jadval. 2019-2023-yillarda "Efe Inter Trans logistic" MChJ QKning logistika xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq ko'rsatkichlari, mln. so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2019-y. yilga nisbatan 2023 yilda o'sish sur'ati
1.	Xizmatlar hajmi	501,6	571,8	587,1	601,2	851,6	169,7
	shu jumladan,						
2.	Logistika xizmatlari hajmi	248,0	265,5	267,8	268,9	331,5	133,6
	Viloyat hududida tranzit yuklarni qayta ishlash bo'yicha logistika xizmatlari hajmi	40,6	55,7	58,7	59,9	82,1	202,2
	Ekspeditorlik xizmatlari hajmi	62,2	74,5	76,7	79,2	81,3	130,7
3.	Boshqa xizmatlar	150,8	176,1	183,9	193,2	356,7	236,5

2023-yilda logistika va transport-ekspeditorlik xizmatlari hajmi 4 160,6 mln so'mni tashkil etib, shundan logistika xizmatlari hajmi 2 458,9 mln so'm va ekspeditorlik xizmatlari hajmi 1 701,7 mln so'mni tashkil qilgan. Ko'rsatilgan logistika va transport-ekspeditorlik xizmatlari umumiy hajmida rezidentlarning ulushi 90,2 foiz va norezidentlarning ulushi 9,8 foizga teng bo'lgan. Qabul qilingan yuklar hajmi 505,2 ming tonnani tashkil etib, ulardan eng yuqori ulush avtomobil transportida — 99,9 foiz qayd etilgan. Keyingi o'rinda konteynerlarda 0,1 foiz va avtomobil transportida 0,6 foizni tashkil etgan.

Logistika xizmatlari ko'rsatuvchi biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatkichlarida ham ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, Samarqand viloyatida faoliyat olib borayotgan "Efe Inter Trans Logistic" MChJ QK va "Vision Trans Logistic Plus" MChJ faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda logistika xizmatlari ko'rsatish hajmi oshib bormoqda (2.9-, 2.10-jadvallar).

"Efe Inter Trans Logistic" MChJ QKning 2023-yilda 2019-yilga nisbatan xizmat ko'rsatish hajmi 1,6 barobarga, shu jumladan, logistika xizmatlari ko'rsatish hajmi 1,3 barobarga oshgan. Korxona tomonidan 2023-



yilda 331,5 mln soʻmlik logistika xizmatlari koʻrsatilgan. Xuddi shunday, “Vision Trans Logistic Plus” MChJning ham logistika xizmatlari koʻrsatish bilan bogʻliq koʻrsatkichlarida oʻsish tendensiyasi kuzatilmogda (2-jadval).

2-jadval. 2019-2023-yillarda “Vision Trans Logistic Plus” MChJning logistika xizmatlari ko’rsatish bilan bog’liq ko’rsatkichlari, mln. so’m

T/r	Ko'rsatkichlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2019-yilga nisbatan 2023-yilda o'sish sur'ati
1.	Xizmatlar hajmi	117,1	112,3	117,8	121,1	124,6	106,4
	shu jumladan,						
2.	Logistika xizmatlari hajmi	12,1	12,7	23,1	34,7	36,4	300,8
	Viloyat hududida tranzit yuklarni qayta ishlash bo'yicha logistika xizmatlari hajmi	51,9	32,1	52,8	52,4	53,8	103,6
	Ekspeditorlik xizmatlari hajmi	23,7	24,1	28,4	28,8	23,2	97,8
3.	Boshqa xizmatlar	76,6	43,4	13,5	5,2	11,2	14,6

Ikki logistika korxonasini o'rganish natijasidan ko'rinib turibdiki, viloyat hududida tranzit yuklarni qayta ishlash bo'yicha logistika xizmatlari hajmi ham asta-sekin oshib bormoqda. "Efe Inter Trans Logistic" MChJ QK tomonidan 2023-yilda 82,1 mln so'mlik tranzit yuklarni qayta ishlash bo'yicha logistika xizmatlari ko'rsatilgan bo'lsa, "Vision Trans Logistic Plus" MChJ tomonidan 53.8 mln so'mlik logistika xizmatlari ko'rsatilgan.

Tadqiqot olib borilgan “Efe Inter Trans Logistic” MChJ QK va “Vision Trans Logistic Plus” MChJ korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy koʻrsatkichlari xizmat koʻrsatish hajmiga mutanosib ravishda oshib bormoqda. Ya’ni, asosiy moliyaviy koʻrsatkichlar ijobiy oʻsish tendensiyasini namoyon qilmoqda. “Vision Trans Logistic Plus” MChJning sof foydasi 2019-yilga nisbatan 2023-yilda qariyb 5 martaga oshgan (3-jadval).

3-jadval. “Efe Inter Trans logistic” MCHJ QK va “Vision Trans Logistic Plus” MCHJlarning asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko’rsatkichlari (mln. so’m hisobida)

T/r	Yillar	“Efe Inter Trans logistic” MCHJ QK			“Vision Trans Logistic Plus” MCHJ		
		Yalpi daromad	Jami xarajatlar	Sof foyda	Yalpi daromad	Jami xarajatlar	Sof foyda
1.	2019	1637,3	1345,3	292,0	227,2	218,8	8,4
2.	2020	1990,2	1802,0	188,2	489,9	345,3	144,6
3.	2021	2094,1	1811,5	282,6	756,2	433,7	322,5
4.	2022	2246,3	1406,2	840,1	952,3	533,6	418,7
5.	2023	2672,9	1902,9	770,0	2122,1	1321,2	800,9

Logistika xizmatlari ko'rsatishda saqlash infratuzilmasi alohida o'rinda turadi. Moddiy oqimning logistika zanjiri bo'ylab uzluksiz harakatini ta'minlash uchun zanjirning ma'lum bo'g'inlarida zaxiralarni barpo qilish talab etiladi. Zaxiralarni joylashtirish va vaqtinchalik saqlash maqsadida omborlar va ombor xo'jaligi tashkil etilishi lozim. Moddiy oqimning ombor ichidagi harakati jonli va buyumlashgan mehnat ta'sirida sodir bo'ladi. Bu esa ma'lum bir xarajatlar bilan bog'liq bo'lib, tovar qiymati (narxini) oshishiga olib keladi. Shu sababli, omborlar faoliyatiga bog'liq muammolarning yechimi butun logistika zanjiri bo'yicha moddiy oqim samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ombor o'zaro aloqada bo'lgan bir nechta tuzilmalardan tarkib topgan, moddiy



resurslarni bir joyga yig'ish, joylashtirish, saqlash va taqsimlash funksiyalarini bajarishga mo'ljallangan murakkab texnik inshootdir.

Samarqand viloyatida logistika xizmatlari ko'rsatuvchi "Efe Inter Trans Logistic" MChJ QK va "Vision Trans Logistic Plus" MChJlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish holati va raqamli texnologiyalarning xizmat ko'rsatish samaradorligiga ta'siri tadqiq qilingan. "Efe Inter Trans Logistic" MChJ QKning raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligi quyidagi operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil qilingan:

- yetkazib berish vaqti: o'rtacha yetkazib berish muddati, vaqtda yetkazib berilgan buyurtmalar ulushi, kechikish koeffitsienti;
- buyurtma bajarilishi: yillik buyurtma hajmi, bir oyda bajarilgan buyurtmalar soni, kechikkan yoki bekor qilingan buyurtmalar soni;
- raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi bo'yicha ko'rsatkichlar: masalan, har bir buyurtma uchun foydalanilgan texnologiyalar soni yoki avtomatlashtirilgan jarayonlar ulushi.

Raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmat ko'rsatishning texnik samaradorligi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilingan:

- texnik xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari: avtomatlashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish (masalan, GPS va IoT texnologiyalari orqali kuzatuv), foydalanish ko'rsatkichi (texnik jihozlar va transport vositalarining ishlash samaradorligi);
- raqamli texnologiyalarning texnik jihatlari: masalan, foydalanilgan dasturiy ta'minot yoki jihozlarning yangilanishi, foydalanish qulayligi, xarajatlar va unumdorlik;
- transport vositalari samaradorligi: transport vositalarining raqamli monitoring va boshqaruvi orqali foydali yuk bilan qamrab olish darajasi, yonilg'i sarfini kamaytirish koeffitsienti.

Raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmat ko'rsatishning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilingan:

- daromad va foyda ko'rsatkichlari: yillik daromad, raqamli texnologiyalarni qo'llash natijasida olingan qo'shimcha daromad va sof foyda;
- xarajatlar dinamikasi: raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq xarajatlar va ular orqali olingan iqtisodiy tejash (masalan, texnologiya joriy etilishi natijasida kamaygan transport xarajatlari va energiya tejallishi);
- ishlab chiqarish samaradorligi: bir xodim tomonidan bajarilgan ish hajmi yoki foydalanilgan texnologiyalarga qarab xizmat ko'rsatish xarajatlarning qisqarishi (4-jadval).

4-jadval. 2019-2023-yillarda "Efe Inter Trans logistic" MChJ QKning raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar				
			2019	2020	2021	2022	2023
1.	O'rtacha buyurtma hajmi	mln. so'm	22,8	30,5	45,0	60,2	75,8
2.	Buyurtmalar bajarilishida kechikish koeffitsienti	koeffitsient	0,8	0,7	0,7	0,6	0,4
3.	Raqamli texnologiyalar qo'llanilishi	%	8,5	12,8	20,0	32,0	45,0
4.	Avtomatlashtirilgan xizmatlar ulushi	%	5,5	25,5	45	50	60
5.	Yonilg'i sarfini kamaytirish koeffitsienti		0,18	0,15	0,14	0,13	0,12
6.	Daromad	mln. so'm	1637,3	1990,2	2094,1	2246,3	2672,9
7.	Xarajatlar	mln. so'm	1345,3	1802,0	1811,5	1406,2	1902,9
8.	Sof foyda	mln. so'm	292,0	188,2	282,6	840,1	770,0

Yetkazib berish vaqti: ushbu ko'rsatkich raqamli texnologiyalar qo'llanilishi ortib borgan sari kamayib, logistika samaradorligi oshib borayotganini anglatadi. Har yili buyurtma hajmining oshishi korxonaning bozordagi ulushi kengaygani yoki mijozlar talabi ko'payganidan dalolat beradi. "Efe Inter Trans Logistic" MChJ QKning o'rtacha buyurtma hajmi 2019-yilga nisbatan 2023-yilda 3,4 barobarga oshib, 75,8 mln so'mni tashkil etgan.




2019-yilda “Efe Inter Trans Logistic” MChJ QKning buyurtmalar bajarilishida kechikish koeffitsienti 0,8 bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida bu ko‘rsatkich 0,4 ga qisqargan.

Raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi: foiz ko‘rsatkichlari raqamli yechimlarning asta-sekin oshganini va shu bilan birga avtomatlashtirish jarayonlarining ham ko‘payganini ifodalaydi. “Efe Inter Trans Logistic” MChJ QKning raqamli texnologiyalarni qo‘llash darajasi 2019-yilda 8,5 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 45,0 foizga yetgan.

Yonilg‘i sarfi: raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida transport xarajatlari qisqargan va bu holat yonilg‘i sarfida ham aks etgan. 2023-yilda “Efe Inter Trans Logistic” MChJ QKning yonilg‘i sarfi 2019-yilga nisbatan 0,06 l/km ga kamaygan.

Daromad va foyda: korxonaning raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali operatsion samaradorligini oshirgani natijasida daromadi va sof foydasi yildan-yilga ortib bormoqda. “Efe Inter Trans Logistic” MChJ QKning 2023-yilda 2019-yilga nisbatan xizmat ko‘rsatishdan olingan daromadi va sof foydasi 1,6 barobarga oshgan.

Bugungi kunda xarajatlarni kamaytirish va jarayonlar samaradorligini oshirishning eng samarali yo‘li raqamli texnologiyalardan foydalanishdir. Shu bois tadqiqotning navbatdagi bosqichida logistika xizmatlarini ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi biznes subyektlarining faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish holati o‘rganildi (1-rasm).




1-rasm. Ishlab chiqarish korxonalarining logistika bo‘limida foydalanilayotgan axborot texnologiyalarning ulushi, %

Logistika xizmatlarini ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi biznes subyektlari, jumladan, ishlab chiqarish korxonalarining logistika bo‘limlari, logistika provayderlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi, transport va omborxona xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi biznes subyektlarining axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasini o‘rganish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, logistika xizmatlari ko‘rsatishda elektron hisob-fakturalar, internet portali, internet-resurslar, avtomatlashtirilgan ichki biznes jarayonlari, radiochastotani identifikatsiya qilish texnologiyasi (RFID texnologiyasi), 3D printerlar va boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Ishlab chiqarish korxonalarining logistika bo‘limlari tomonidan asosan 81,2 foiz hollarda elektron hisob-fakturalar yuritilmoqda (1-rasm).

Ishlab chiqarishda axborot texnologiyalaridan radiochastotani identifikatsiya qilish texnologiyasi (RFID texnologiyasi) 0,9 foiz, robototexnika 0,7 foiz va 3D printerlar 0,3 foiz ulushga ega.

Asosiy logistika xizmati ko‘rsatuvchi transport va omborxona xo‘jaliklarida eng ko‘p qo‘llaniladigan axborot texnologiyalari elektron hisob-fakturalar va internet portalidir. Ishlab chiqarish korxonalaridan farqli ravishda, transport va omborxona xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi biznes subyektlari bulutli IT xizmatlari, Big Data va WMS (omborlarni boshqarish tizimi) kabi axborot texnologiyalaridan foydalanmoqda (2-rasm).



2-rasm. Samarqand viloyatida transport va omborxona xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda axborot texnologiyalarning turlaridan foydalanish ulushi, %

Samarqand viloyatida transport va omborxonalarda robototexnikadan foydalanadigan korxonalar soni jami 16 tani tashkil etadi, shundan 9 tasi sanoat robotlari va 7 tasi xizmat ko'rsatish robotlaridir. Asosan, transport va logistika sohasidagi kompaniyalar axborot texnologiyalari bilan bog'liq uchinchi tomon tashkilotlari va mutaxassislari xizmatlaridan foydalanadi, bu esa AKT xarajatlarining 59,7 foizini tashkil qiladi. Litsenziya shartnomasi asosida foydalaniladigan dasturiy ta'minotni sotib olish qiymati nisbatan yuqori hisoblanadi. AKT xarajatlarining kichik ulushi (0,2 foiz) korxonada mustaqil dasturiy ta'minotni ishlab chiqish hamda AKTni ishlab chiqish va foydalanish bilan bog'liq xodimlarni o'qitish xarajatlarga to'g'ri keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, O'zbekistondagi transport va omborxona korxonalarida AKTdan foydalanish bo'yicha ikkilamchi ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu korxonalar kompyuterlar bilan yaxshi ta'minlangan hamda internetga keng kirish imkoniyatiga ega. Kelgusida esa 3D printerlar, RFID texnologiyasi, robototexnika, katta ma'lumotlarni tahlil qilish kabi ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari mavjud. Ushbu korxonalarda elektron hisobvara-fakturalar va internet portali kabi axborot tizimlarining muvaffaqiyatli qo'llanilayotgani kelajakda boshqa texnologik yechimlarni ham keng joriy etish uchun asos yaratadi. Onlayn buyurtmalar yaratish hamda tovar va xizmatlarga buyurtma berishda internetdan foydalanish ko'rsatkichlari izchil oshib bormoqda, bu esa xorij tajribasidagi ilg'or amaliyotlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishga yo'l ochadi.

Logistika xizmatlari ko'rsatuvchilar tomonidan ijtimoiy tarmoqlar mijozlar, hamkorlar va manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot vositasi sifatida qo'llanilmoqda. Kelgusida kompaniyalar dasturiy ta'minot va axborot tizimlarini ishlab chiqish, shuningdek, xodimlarni raqamli kompetensiyalar bo'yicha o'qitish jarayonlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, transport va logistika sohasida AKT mutaxassislariga bo'lgan talabning oshib borishi malakali kadrlar tayyorlashga ijobiy turtki beradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari global miqyosda logistika rivojlanishida raqamli texnologiyalarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston bo'yicha kuzatilayotgan ma'lumotlar esa sohada raqamli transformatsiyaning shakllanish bosqichi boshlanganini bildiradi. Bu jarayon izchil investitsiyalar va samarali boshqaruv orqali tez sur'atlar bilan rivojlanishi mumkin.

Kelgusida mamlakat logistika xizmatlari sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etishda davlat va xususiy sektor o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik mexanizmlarini yaratish, yuk tashish jarayonlarida elektron hujjat aylanishini keng joriy etish, yetkazib berish zanjirining shaffofligini ta'minlash hamda omborlar va transport-logistika markazlarida yuklash-tushirish ishlarini avtomatlashtirish bo'yicha istiqbolli chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali sohada samaradorlik oshishi, raqobatbardoshlik kuchayishi va xalqaro bozorda integratsiya imkoniyatlari kengayishi kutilmoqda.



FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmoni// www.lex.uz
2. Бубнова Г.В., Лёвин Б.А. Цифровая логистика инновационный механизм развития и эффективного функционирования транспортно логистических систем и комплексов. International Journal of Open Information Technologies. 2017, №3, 72-77 pp.
3. Василенок В.Л., Круглова А.И., Алексашина Е.И., Негреева В.В., Пластунова С.А. Основные тренды цифровой логистики // Научный журнал НИУ ИТМО. Серия: Экономика и экологический менеджмент - 2020. - № 1(40). - С. 69-78
4. Evangelista P., Mogre R., & Sweeney E. (2012). A survey based analysis of IT adoption and 3PLs' performance. Supply Chain Management. 2, 172–186. <https://doi.org/10.1108/13598541211212906>
5. Зарипова Р.С., Рочева О.А., Хамидуллина Ф.Р., Арбузова М.В. Внедрение цифровых технологий как фактор повышения эффективности работы транспортно-логистических систем. International Journal of Advanced Studies: Transport and Information Technologies, Vol. 11, No 2, 2021, 100-114 pp.
6. Kawasaki T., Hanaoka S., & Le H.T. (2011). The Impact of Information and Communication Technology on Performance of Logistics Service Providers in Vietnam. JSCE. 1-9
7. Logistics Market Size, Share, and Trends 2024 to 2033. Precedence Research. <https://www.precedenceresearch.com/logistics-market>
8. Choy K.L., Gunasekaran A., Lam H.Y., Chow K. H., Tsim Y.C., & Ng T.W. (2014). Impact of information technology on the performance of logistics industry: the case of Hong Kong and Pearl Delta region. Journal of the Operational Research Society. 904–916. <https://doi.org/10.1057/jors.2013.121>
9. Набиуллин А.С., Зарипова Р.С. Применение технологии блокчейн для управления грузоперевозками // Наука Красноярья. 2020. Т. 9, №4-2. С. 106-110.
10. Щеголева Т.В. Цифровые технологии обеспечения надежности цепи поставок высокотехнологичного производства / Т. В. Щеголева, Е. Ю. Самаричева, А. А. Парамонова. - 2018. - С. 51-55.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>